



“MIRANDA QOIDASI” VA UNING MILLIY JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGIGA UYG`UNLASHUVI

Qilichev Nosirbek Jasur o`g`li

Samarqand davlat universiteti, yuridik fakulteti talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p1-02>

ARTICLE INFO

Received: 23th January 2023

Accepted: 31th January 2023

Online: 02nd February 2023

KEY WORDS

“Miranda qoidasi”, jinoyat, gumon qilinuvchi, huquq, ushlar, so`roq qilish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada AQSH da yuzaga kelgan, gumon qilinuvchining ba`zi huquqlariga oid bo`lgan “Miranda qoidasi” tushunchasi, tarixi va uning O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga uyg`unlashuvi va huquqiy ahamiyati to`g`risida so`z yuritiladi.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta`minlash bugungi kunda ko`plab mamlakatlar o`z oldiga qo`ygan maqsadlardan biridir. Shundan kelib chiqib xalqaro huquqda va har bir davlatda inson huquqi va erkinliklari, shaxsning sud va tergov organlaridagi himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladigan ko`plab tarixiy hujjatlar qabul qilingan. AQSH jinoyat olamida o`ziga xos jinoyatlarni sodir etgan Ernest Arturo Miranda nomi bilan bog`liq “Miranda qoidasi” ham ana shunday hujjatlar qatoriga kiradi. Ushbu qoidaning tarixiga nazar soladigan bo`lsak, AQShning Arizona shtati politsiyasi ashaddiy jinoyatchi E.Mirandani 1966 yili bir necha og`ir jinoyatni sodir etganlikda gumon qilib, hibsga olgan. Unga so`roq qilinishdan oldin gumonlanuvchi sifatidagi huquqlari tushuntirilmagan. Shu bois, E.Miranda o`z huquqlarini bilmagan holda, aybiga iqrorlik ko`rsatuvlarini bergan. Bu ko`rsatuvlardan esa uning iqrorligiga isbot sifatida foydalanilgan. Buning oqibatida E.Miranda sudlangan va hukm etilgan.

Keyinchalik E.Mirandaning 73 yoshli advokati Elvin Mur tomonidan AQSH Oliy sudiga shikoyat taqdim etilgan. Natijada, E.Miranda o`z huquqlaridan xabardor qilinmaganligi sababli, sudning bu hukmi AQSH Oliy sudi tomonidan bekor qilingan. Sud qarori tufayli yuzaga kelgan mazkur yuridik norma dastlab AQSH sud amaliyotida “Miranda huquqlari” deb yuritilgan. So`ng esa xalqaro huquqda “Miranda qoidasi” nomini olgan¹.

Miranda qoidasi (ingl. Miranda warning) — ushlar jarayonida ushlanuvchi o`zining huquqlari haqida ogohlantirilishi, uni ushlayotgan huquqni muhofaza qilish xodimi esa u aytilayotganlarni tushunayotganligi haqidagi savolga ijobiy javobni olishi kerakligi haqidagi AQShdagi yuridik talab. Ushbu qoidaning umumiy formulirovkasi quyidagicha:

«Siz sukut saqlash huquqiga egasiz. Siz aytgan har qanday narsa sudga qarshi ishlatilishi mumkin. So`roq jarayonida sizning advokatingiz ishtirok etishi mumkin. Agar siz advokat xizmati uchun pul to`lay olmasangiz, u sizga davlat tomonidan taqdim etiladi. Siz o`z huquqlaringizni tushundingizmi?»

¹ <https://pravacheloveka.uz/oz/news/miranda-qoidasi-va-milliy-qonunchilik>



Miranda qoidasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham mustahkam-langan bo'lib, biz quyida uni tahlil qilamiz. Miranda qoidasi O'zbekistonda 2009 yil 1 yanvardan e'tiboran joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami, 2008 yil, № 52, 514bet). Miranda qoidasidan ko'zlangan maqsad shaxsga o'z-o'ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqini (nemo tenetur se ipsum accusare) berish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 47-moddasiga ko'ra gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to'g'risida ma'lumotlar bor bo'lsa-da, bu ma'lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lmagan shaxsdir. JPK ning 48-moddasida gumon qilinuvchining protsessual huquq va majburiyatlari berilgan bo'lib, o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish; u amalda ushlangan yoki jinoyat joyida ushlab bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlangan yoxud uning gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ega.

Jinoyat-protsessual kodeksining 224-moddasiga ko'ra Ichki ishlar organi xodimi, boshqa vakolatli shaxs ushlab turishning JPKning 221-moddasida ko'rsatilgan asoslaridan bittasi mavjudligini bevosita aniqlasa yoki boshqa shohidlarning so'zlaridan aniqlasa:

- 1) o'zini tanishtirishi va ushlab turilgan shaxsning talabiga ko'ra o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi;
- 2) gumon qilinuvchiga u jinoyat sodir etishda gumon qilib ushlanganligini ma'lum qilishi;
- 3) ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuvlar berishni rad etishga bo'lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi;
- 4) ushlab turilgan shaxsga u bergan ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi;
- 5) ushlab turilgan shaxsdan yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga birga borishini talab qilishi shart.

Yuqoridagi normalarga e'tibor beradigan bo'lsak "Miranda qoidasi" O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonunchiligida yaqqol o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda keng ko'lamli sud-huquq islohotlari amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga "Miranda qoidasi"ni kiritish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda berildi. «Tahlillar huquq-tartibot organlari tomonidan shaxs qo'lga olinganda, u nima uchun ushlangani va qanday huquqlarga ega ekani tushuntirilmayotganini ko'rsatmoqda. Natijada, gumon qilinuvchining huquqlari ushlangan dastlabki vaqtdayoq xavf ostida qoladi», — dedi davlat rahbari. Ushbu holatlarni oldini olish maqsadida ko'plab davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida hamda inson



huquqlariga oid xalqaro hujjatlarida aks etgan «Miranda qoidasi»ni qo'llash lozimligi aytili. «Ya'ni, shaxsni ushlab chog'ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shart. Ana shu qoidani Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yishning vaqt-soati keldi, deb o'ylayman», — dedi Shavkat Mirziyoyev.² Ushbu taklifning Konstitutsiyamizda o'z aksini topishi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning yana bir muhim institutining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi.

References:

1. Jinoyat-protsessual kodeksi – T: “Yuridik adabiyotlar publish”. 2021 y.
2. Jinoyat protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. Mualliflar jamoasi.//yu.f.d. prof.G.Z.To'lganova. dots.S.M.Rahmonovalarning umumiy tahriri ostida. – Toshkent : TDYU nashriyoti , 2017-yil. – 490 bet.
3. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/miranda-qoidasi-va-milliy-qonunchilik>
4. <https://kun.uz/uz/news/2019/05/26/sukut-saqlash-huquqiga-egasiz-miranda-qoidasi-ozbekiston-qonunchiligida-qanday-aks-etgan>.

² <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/20/suspect/>